



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 460 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoirra Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili .....	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida .....	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni .....	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar) .....	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari .....	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENTS
		O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati ..... 202 Baymanova Feruza Abralovna
		Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari ..... 207 Xayitova Ulfatoy Tursunovna
		Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ..... 211 Turg'unboev Sirojiddin Faxriddinovich
		Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi... 216 Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li
		Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы ..... 225 Шахноза Холмуродова Зоир кизи
		O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli ..... 234 Farsaxonova Mastura Jalol qizi
		Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli ..... 241 Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi
		Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi ..... 244 Sitora Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi
		Amudaryo foreli (Salmo trutta oxianus) O'zbekiston huddudida tarqalishi va ekologiya ta'siri..... 248 Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Sevinch Sirojiddinova, Qurbonazarova Marjona Zokirovna
		Suv va quruqlik muhitiga moslashgan amfibiyalarda adaptatsiya xususiyati ..... 251 Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Axmamatova Feruza Shamsiddin qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navro'z qizi
		O'zbekistonda tarqalgan kaptarsimonlar xilma-xilligi, ularni tarqalishi, biologik xususiyatlari va amaliy ahamiyati ..... 255 Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Jasmina Baxtiyor qizi, Saidova Dilnoza Rustamovna
		Surxondaryo viloyatidagi qo'lqanotlilar turlarining morfologik tasnifi va hududiy farqlari ..... 259 Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Yarashova Sarvara Islomovna, Bahromova Shahzoda Abduqodirovna
		Игровые технологии как средство активизации коммуникативной деятельности учащихся на занятиях по русскому языку ..... 267 Халикова Гульбахор Исановна
		Yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganishning konseptual va metodologik asoslari ..... 270 Matkarimova Muxabbat Abuovna
		O'qish savodxonligini baholovchi topshiriqlar turlari ..... 277 Rasulova Mushtariybonu
		Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlaridagi bolalarda tashqi nafas olish tizimi xususiyatlari ..... 281 Orazbaeva Navbaxor Mratbaevna
		“Kompyuter tarmoqlari” fanini o'qitishda dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish ..... 285 Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o'g'li
		Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 288 Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, Safarova Sevara Saloxiddinovna
		Raqamli ta'lim strategiyalaridan foydalanib o'qish samaradorligini oshirish ..... 294 Narzullayeva Gulzira Xayrullo qizi, Abdusottarova Farog'at Olimjon qizi
		Oliy ta'limda “Zoologiya” kursini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (“umurtqali hayvonlar” misolida)..... 299 Xonnazarova Mamlakat To'lqinovna
		Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sportni rivojlantirish strategiyalari ..... 303 Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li
		Accommodating a Teenage English Learner With Tourette-Related Stammering in Uzbekistan State Multilevel Test Preparation: A Single-Case Study ..... 307 Yulduz Sultanova
		Yengil atletikada to'siqlar osha yugurish texnikasini takomillashtirish va o'rgatish uslubiyati ..... 313 Chariyev Ulug'bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich



The Interaction of Language and Culture in Intercultural Conflict Communication .....	317
<b>Gulnoza Khushnazarova</b>	
O'smir shaxsida o'zini o'zi tushunish psixologik muammo sifatida.....	321
<b>Mahmudov Abdurasul</b>	
O'quvchilar nutqida milliy-madaniy leksik birliklarni qo'llashga o'rgatishda semantikashtirish .....	325
<b>Tursunova Javhar Bakir qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda matematik madaniyatni shakllantirish: Qori Niyoziy merosi asosida.....	329
<b>Axmedova Nargiza Toychibekovna</b>	
A2 darajadagi o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda adaptiv yondashuvning roli .....	333
<b>Nezametov Zuxra Axmadovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kasbga ijodiy munosabatni tarbiyalashning nazariy asoslari.....	336
<b>Axmatov Ibrohimjon Furqat o'g'li</b>	
Voyaga yetmaganlar profilaktikasida maktab, oila va mahalla hamkorligining zamonaviy holati va diagnostikasi .....	340
<b>Japparbergenova Indira Bayramovna</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishni pedagogik tizimini takomillashtirish .....	344
<b>Amankosova Dinara Gabitovna</b>	
Innovatsion usullar vositasida maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirish.....	348
<b>Mamatova Aziza Bo'riboyevna</b>	
Dzyudoning olimpiya o'yinlaridagi o'rni va ahamiyati .....	353
<b>Jaxongir O'razbayev Temur o'g'li</b>	
Umumta'lim maktab o'quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari.....	356
<b>A'zamov Inom Salimjonovich</b>	
The Role of Digital Platforms in Developing Students' Independent Learning Competency.....	360
<b>Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna, Uraqova Shaxlo Turdiyevna</b>	
Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati .....	365
<b>Toshpo'latov Olim Panjiyevich</b>	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarining ta'lim jarayonlarini tashkil etish .....	370
<b>Bektemirova Asilabonu Akmal qizi</b>	
Kreativ ta'lim texnologiyalari asosida talabalarda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	374
<b>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</b>	
Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va yosh xususiyatlari .....	378
<b>Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li</b>	
Tasviriy san'at darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	383
<b>Xushvaqtov Abror Doniyor o'g'li</b>	
Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy o'qitish metodlari va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	387
<b>Murodova Dilafro'z Matmurod qizi, Sattarova Bibijon Muzaffar qizi, Bekmurodova Muhayyo Uralbayevna</b>	
Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish borasidagi milliy va xorijiy tajribalar .....	391
<b>Aralova Maxsuma Abdurahmonovna</b>	
Yuqori sinf o'quvchilariga chet til o'qitish va o'rgatishda motivatsiyaning o'rni xususida.....	396
<b>Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, Ismoilova Feruza Salimjon qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion metodlar .....	400
<b>Axmedova Fayziniso Otabek qizi</b>	
Bo'lajak pedagoglarning uzluksiz amaliy faoliyatida professional salohiyatini rivojlantirish yo'llari .....	403
<b>Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi</b>	

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	406
<i>J. B. Jumabayev</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	412
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Biologiya ta'lim jarayonida ilg'or hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash.....	416
<i>Mo'minov Dilshod Yaxshiboy o'g'li</i>	
Oliy ta'limda masofaviy ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	420
<i>Mutalibova Muqaddasxon Abdunabi qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish .....	423
<i>Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Saminjonova Sevaraxon Axmadjon qizi, Abdihakimova Muqaddas Fahridinova, Matsapayeva Nigora Satbay qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining etnopedagogik kompetentligini shakllantirishda milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining didaktik imkoniyatlari .....	428
<i>Pardayeva Gulchexra Safarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	432
<i>Qipchaqova Sevinchxon Farxodjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim boshqaruvida ERP tizimlarini integratsiyalashning proaktiv modeli.....	436
<i>Raxmatillayev Oyatillo Zikrillayevich</i>	
Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish va loyihalashtirish.....	439
<i>Sadikova Shoista Akbarovna, Yangiboyeva Salomat Samandarovna, Yangiboyeva Sevinch Samandarovna</i>	
Milliy hunarmandchilik buyumlarini yasash orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish .....	442
<i>Xayitov Jonibek Xolboboyevich, Nabijonova Nilufar Nabijon qizi</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	446
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Сравнительно-типологический анализ юмора и гуманизма в творчестве Гафура Гуляма и Марка Твена.....	451
<i>Абдумунинова Махлиё</i>	
Особенности фонетико-фонематической речи (качественные и количественные) у младших школьников с речевыми расстройствами.....	453
<i>Заирова Н. Б.</i>	

# BOLALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA YOSH XUSUSIYATLARI

Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning shaxs sifatida shakllanishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda muammolarni samarali hal etishida muhim omil hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashning rivojlanish jarayoni bolalarning yosh, psixologik va kognitiv xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning aqliy faoliyati, xotirasi, diqqati va mantiqiy tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning shakllanishiga bolalarning individual xususiyatlari va intellektual salohiyati bilan bir qatorda, oila muhiti, ta'lim jarayoni, pedagogik metodlar hamda ijtimoiy omillar ham sezilarli darajada ta'sir etishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, pedagogik metodlar, aqliy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar.

**Abstract:** The development of critical thinking skills in children plays an important role in their personal growth, independent decision-making, and effective problem-solving abilities. The process of developing critical thinking is closely related to children's age, psychological, and cognitive characteristics and directly influences their mental activity, memory, attention, and logical reasoning. In addition, the formation of critical thinking is significantly affected not only by children's individual characteristics and intellectual potential, but also by the family environment, educational processes, pedagogical methods, and social factors, which are scientifically analyzed in the study.

**Key words:** critical thinking, problem-based learning, pedagogical methods, mental development, pedagogical technologies.

**Аннотация:** Развитие навыков критического мышления у детей играет важную роль в их личностном становлении, самостоятельном принятии решений и эффективном решении проблем. Процесс формирования критического мышления тесно связан с возрастными, психологическими и когнитивными особенностями детей, а также непосредственно влияет на их умственную деятельность, память, внимание и логическое мышление. Наряду с индивидуальными особенностями и интеллектуальным потенциалом детей, существенное влияние на развитие критического мышления оказывают семейная среда, образовательный процесс, педагогические методы и социальные факторы, что получило научное обоснование в исследовании.

**Ключевые слова:** критическое мышление, проблемное обучение, педагогические методы, умственное развитие, педагогические технологии.

## KIRISH

Tanqidiy fikrlashni ko'pincha mulohazali fikrlash deb ham atashadi. Bu qobiliyatning asosiy mohiyati shundaki, o'quvchi ma'lumotni passiv tarzda qabul qilmasdan, uni tahlil qiladi, baholaydi va qarama-qarshi fikrlarni ko'rib chiqadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'rganilayotgan materialni analiz va sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, xulosa chiqarish kabi fikr yuritish operatsiyalarini bilishi va qo'llashi muhimdir. Ushbu fikr yuritish jarayonlari asosan logika fanining muammolari bilan bog'liq bo'lib, hozirgi vaqtda logika faniga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Shu sababli, har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga fikr yuritish operatsiyalarini tushuntirishi va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur.

Tanqidiy fikrlash shakllanishi uchun o'quvchi o'zi o'rganayotgan sohani chuqur egallashi, ko'p o'qishi va bilim to'plashi lozim. Bu esa tafakkurning yuksak darajada rivojlanganligini bildiradi. Ta'lim jarayoni o'quvchining mustaqil fikrlash darajasi oshirilgandagina samarali bo'ladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi va mohiyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat. Chunki



faqat mustaqil o'qib, mulohaza yuritib o'zlashtirilgan bilim mustahkam bo'ladi va turli sharoitlarda samarali qo'llanadi. Tanqidiy fikrlash bilim olishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi, ayniqsa, muammoli-izlanuvchan bosqichda. Ushbu bosqichda o'quvchining mustaqilligi kengaytiriladi va u ta'lim jarayonida o'z kashfiyoti hamda izlanishlari asosida yangi bilimlarni egallaydi. Bu pedagogik yondashuv ilmiy adabiyotlarda "kashfiyot orqali bilim olish" deb yuritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalasi psixolog va pedagog olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

E.G'. G'oziyev umumiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida tafakkur jarayonining shakllanishi insonning bilish faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, bolaning mustaqil fikrlashi va voqelikni tahlil qila olishi uning intellektual rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

M.G. Davletshin va Sh.B. Shoumarov yosh davrlari psixologiyasiga oid ilmiy qarashlarida bolalarning yosh xususiyatlari ularning fikrlash faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ularning tadqiqotlarida kichik yoshdagi bolalarda obrazli tafakkur ustun bo'lsa, yuqori yosh bosqichlarida mantiqiy va tanqidiy tafakkur asta-sekin rivojlanishi qayd etilgan.

V.M. Karimova o'zining ijtimoiy va oila psixologiyasiga oid tadqiqotlarida oilaviy muhitning bolaning fikrlash faoliyatiga sezilarli ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, oilada erkin muloqotning mavjudligi, bolaning fikriga hurmat bilan yondashilishi hamda mustaqil qaror qabul qilishga undalishi tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Z.T. Nishonova esa bolalar psixologiyasiga oid ilmiy ishlarida bolaning diqqat, xotira va tafakkur jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatib, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish fikrlash faoliyatini faollashtirishini qayd etadi.

Rus psixolog olimlari L.S. Vigotskiy, P.Ya. Galperin va V.V. Davydovlarning ilmiy qarashlari ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

L.S. Vigotskiy bolaning aqliy rivojlanishi ijtimoiy muhit va ta'lim bilan bog'liq ekanligini asoslagan bo'lsa, P.Ya. Galperin aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqan.

V.V. Davydov esa rivojlantiruvchi ta'lim orqali o'quvchilarda nazariy tafakkur va mustaqil fikrlashni shakllantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mazkur ilmiy qarashlar bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning samaradorligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayonlarda maxsus texnologik yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- O'quvchi uchun ahamiyatli bo'lgan muammoni yaratish** – dars jarayonida o'quvchi uchun qiziqarli va dolzarb muammo taqdim etiladi. Bu esa uning e'tibori va izlanish motivatsiyasini uyg'otadi.
- O'rganilayotgan mavzuda qarama-qarshilikni ko'rsatish va tushuntirish** – o'quvchi mavzudagi nomutanosiblik yoki muammo mavjudligini anglab yetishi lozim. Bu bosqichda u muammoni o'z nuqtayi nazaridan baholash va tahlil qilishga o'rgatiladi.
- Ijodiy natijani ifodalash** – o'quvchi muammoga yechim topish jarayonini ijodiy faoliyat sifatida his etadi va o'z kashfiyoti orqali yangi bilimlarni shakllantiradi.<sup>1</sup>

Ta'lim jarayoni an'anaviy yondashuvdan tubdan farq qiladi. An'anaviy usulda o'qituvchi bilimning yagona manbai bo'lib qoladi va o'quvchining qiziqishi, ilgari egallagan bilimlari yoki shaxsiy munosabati hisobga olinmaydi. Shu sababli ko'plab holatlarda an'anaviy ta'lim samaradorligi past bo'lishi mumkin. Didaktikadagi asosiy muammolardan biri shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchining yetuklik darajasi hamda ilgari egallagan bilimlarini hisobga olish yetarli darajada amalga oshirilmaydi.

Bolalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda shaxsiy xususiyatlar hamda psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Bu omillar bolalarning o'qishga bo'lgan munosabati, tafakkur darajasi va ijodiy faoliyatga qobiliyatini belgilaydi. Ularni uchta asosiy yo'nalishda tahlil qilish mumkin:

- aqliy rivojlanish darajasi,
- emotsional barqarorlik va motivatsiya,
- shaxsiy qiziqish hamda bilimga intilish.

<sup>1</sup> Ennis, R. H. (2011). The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities.

**TAHLIL VA NATIJALAR****1. Aqliy rivojlanish darajasi**

Bolalarning umumiy intellektual salohiyati tanqidiy fikrlashning shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Aqliy rivojlanish darajasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- 1. Mantiqiy tafakkur:** bolaning sabab-oqibat munosabatlarini tushunishi, faktlarni tahlil qilishi va ularni umumlashtirish qobiliyati. Tanqidiy fikrlash aynan shu mantiqiy asosga tayanadi, chunki u turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va qaror qabul qilish imkonini beradi.
- 2. Tahlil qobiliyati:** ma'lumotlarni qiyoslash, asoslash va xulosaga kelish bolaning tanqidiy fikrlashida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, tarixiy voqealarni o'rganayotganda yoki matematik masalalarni yechayotganda bolaning tahliliy fikrlash qobiliyati ularni qismlarga ajratish va har bir qismini chuqur o'rganishga yordam beradi.
- 3. Muammolarni hal qilish qobiliyati:** bolaning yangi va murakkab vaziyatlarda mantiqiy yechim topish qobiliyati tanqidiy tafakkurini mustahkamlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, aqliy rivojlanish darajasi faqatgina IQ ko'rsatkichlari bilan o'lchanmaydi, balki bolaning ijodiy va amaliy fikrlash qobiliyati ham unga kiradi. Shu sababli pedagoglar bolalarning aqliy salohiyatini baholashda o'quv faoliyatidagi turli topshiriqlar va vaziyatlarni tahlil qilishni asosiy mezon sifatida qo'llashlari lozim.

**2. Emotsional barqarorlik va motivatsiya**

Bolalarning emotsional holati va motivatsiyasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlarni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zini ifoda etish qobiliyati: bolaning fikrlarini erkin va aniq ifoda etishi, o'z qarashlarini boshqalarga yetkazish qobiliyati. O'z fikrini ochiq ayta oladigan bola tanqidiy fikrlash jarayonida faol ishtirok etadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi o'quvchilarga mos savollar berish orqali ularni faol mulohazali tafakkurga jalb qiladi. Savollar har bir bosqichga xos bo'lib, o'quvchining bilimi, tushunishi va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Da'vat bosqichi:**

1. "O'rganilayotgan mavzuga asos bo'ladigan ma'lumotlarni bilasizmi?"
2. "Ularni bilish nima uchun zarur?"
3. "Nimani anglamoqchi edingiz, lekin aniqlay olmadingiz?"
4. "Bu nima uchun muhim?"

**Anglash bosqichi:**

1. "Bu materialdan qanday yangilikni bilib oldingiz?"
2. "Siz bu haqida qanday fikrdasiz?"
3. "Buning ahamiyati nimada?"
4. "Sizga nima kuchli ta'sir etdi?"
5. "Bilib olganingiz sizning tajribangizga mosmi?"
6. "Bu yaxshimi yoki yomonmi?"
7. "Muammoni yaxlit holda qanday tasavvur etasiz?"
8. "Voqeaning keyingi rivoji haqida qanday fikrdasiz?"

**Fikrlash bosqichi:**

1. "Bu haqda qanday fikrdaman?"
2. "Bu ma'lumot sizdagi bilimlarga qanchalik mos keladi?"<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Ennis, R. H. (2011). The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities.



O'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda faoliyat olib borib, bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, ularni o'zining ijodiy kashfiyoti sifatida his etadi. Shu orqali o'qish faoliyati shaxsiy yutuq sifatida qabul qilinadi, bilish motivatsiyasi ortadi va o'quvchida o'qishga qiziqish paydo bo'ladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda muhim talab – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bu esa muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish, ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish hamda ularning bilim, ko'nikma va malaka darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

Shu jarayon o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat va ta'lim jarayoniga nisbatan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Pedagogik texnologiya subyektiv xususiyatga ega bo'lib, har bir o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati hamda kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Qanday shakl, metod va vositalardan foydalanilishidan qat'i nazar, pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishi zarur:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash;
- o'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilim egallashini ta'minlash;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarini ustuvor qilish.<sup>3</sup>

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Ular faqat tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan, ilg'or texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash orqali samarali natija beradi va o'quvchilarni ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning o'quv va ijodiy faoliyatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlash maqsadida keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarni tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan mashhur bo'lib, ular ta'lim amaliyotida o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Keyingi qismda interfaol metodlarning mohiyati va ulardan foydalanish usullari haqida batafsil so'z yuritiladi.

“Aqliy hujum” metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda qo'llaniladigan pedagogik usullardan biridir. Ushbu metod mashg'ulot ishtirokchilarini muammo yuzasidan keng va har tomonlama fikr yuritishga, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanishga rag'batlantiradi. Shu orqali o'quvchilarda muayyan ko'nikma va malakalar shakllanadi hamda bir nechta original yechimlarni topish imkoniyati yaratiladi.

Metodning asosiy vazifalari:

- tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash;
- ular bilan bog'liq muqobil g'oyalarni ishlab chiqish;
- mashg'ulot ishtirokchilarini muammo bo'yicha keng fikr yuritishga rag'batlantirish.

Metoddan samarali foydalanish qoidalari:

1. O'quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash va ularning mantiqiy fikrlarini bildirishiga erishish.
2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilgan fikrlar rag'batlantiriladi, eng maqbul fikrlar tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi yangi fikrlarning paydo bo'lishiga olib keladi.
3. Har bir o'quvchi o'z shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avvalgi fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin yaratadi.
4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning faoliyati baholanmaydi. Agar fikrlar baholanadigan bo'lsa, o'quvchilar diqqatini shaxsiy himoyaga qaratadi va yangi g'oyalar ilgari surilmaydi. Metodning maqsadi – keng fikr yuritishni rag'batlantirishdir.

<sup>3</sup> Минаев, В. Г., & Савельева, И. В. (2010). Педагогические технологии и методы обучения. Москва: Просвещение.

### Metodning qo'llanilishi

“Aqliy hujum” ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ish usuli bo'lib, ta'lim jarayonida ham keng qo'llaniladi. Bu metod da'vat, anglash va fikrlash bosqichlarida samarali ishlatiladi. Muammoli vaziyat, yangi tushuncha yoki yangi mavzu tanlanadi, ishtirokchilar o'z fikri, mulohazasi va takliflarini bayon etadi. Barcha aytilgan ma'lumotlar qayd etiladi va keyin eng maqbul fikr tanlanadi. Guruhning barcha qatnashchilari faol ishtirok etishi shart. Hech qanday fikr cheklanmaydi va tanqid qilinmaydi. Noto'g'ri bildirilgan fikr ustidan kulish yoki tanqid qilish taqiqlanadi. “Aqliy hujum” metodi o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va keng fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, mashg'ulot jarayonini interfaol va qiziqarli qiladi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni tahlil qilishi, turli vaziyatlarga obyektiv baho bera olishi hamda ijodiy yondashuv asosida yechim topish qobiliyatini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, aqliy rivojlanish darajasi, emotsional barqarorligi hamda motivatsiyasi tanqidiy fikrlashning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, oila muhiti, pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlardan samarali foydalanish ham ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida “Aqliy hujum”, muammoli ta'lim, savol-javob va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning erkin va mustaqil fikrlashiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchining pedagogik mahorati va ijodiy yondashuvi ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- ta'lim jarayonida interfaol metodlardan muntazam foydalanishni kengaytirish;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlar sonini oshirish;
- pedagoglarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid metodik tayyorgarligini kuchaytirish;
- oilada bolalarning erkin fikr bildirishiga qulay psixologik muhit yaratish;
- ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash.

Yuqoridagi omillarni amaliyotga joriy etish bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularning intellektual salohiyati va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2002.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2005.
3. Davletshin M.G., Shoumarov Sh.B. Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2007.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan, 2010.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
6. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi. – T.: TDPU, 2012.
7. To'raqulov X.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: Fan, 2009.
8. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogika asoslari. – T.: O'qituvchi, 2011.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.
10. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991.
11. Гальперин П.Я. Введение в психологию. – М.: МГУ, 1976.
12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002.
13. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Интор, 1996.
14. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – М.: Просвещение, 1974.
15. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.